

O‘ZBEKISTONDA KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG STANDARTLARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

Bekzod Umarov

Toshkent davlat yuridik universiteti, Tadbirkorlik huquqi va korporativ huquq
sho‘basi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ESG (environmental, social, governance — atrof-muhit, ijtimoiy mas’uliyat va korporativ boshqaruv) standartlarining vujudga kelish tarixi, mazmun-mohiyati hamda zamonaviy korporativ boshqaruv munosabatlaridagi o‘rni korporativ huquq nuqtai nazaridan tahlil etilgan. Maqolada ESG konsepsiyasining investitsiyalarni jalb qilishdagi ahamiyati, O‘zbekistonda ushbu standartlarni joriy etishga qaratilgan davlat siyosati va so‘nggi o‘n yil ichida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar tizimli ravishda o‘rganilgan. Xalqaro va milliy tashkilotlarning hisobotlari hamda mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlari asosida ESGni huquqiy rasmiylashtirishning asosiy modellari qiyoslanib, O‘zbekiston sharoitida ESG standartlarini samarali joriy etish bo‘yicha asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ESG standartlari, korporativ boshqaruv, korporativ huquq, barqaror rivojlanish, moliyaviy va nomilayviy hisobotlar, davlat ishtirokidagi korxonalar, IFRS Sustainability Disclosure Standards, investitsiya jozibadorligi, fidusiar majburiyatlar, manfaatdor tomonlar.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlat va jamiyat hayotini modernizatsiyalash hamda iqtisodiyotni liberallashtirish jarayonlari korporativ-huquqiy munosabatlarning sifat jihatdan rivojlanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Xususan, korporativ boshqaruvni takomillashtirish, korporatsiyalar faoliyatida shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish, ijtimoiy mas‘uliyat tamoyillarini keng joriy etish hamda investorlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan islohotlar mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Mazkur islohotlar faqatgina ichki iqtisodiy liberallashtirish ehtiyoji bilan emas, balki mamlakatning **global iqtisodiy tizimga tobora chuqurroq integratsiyalashuvi** bilan ham bevosita bog‘liq bo‘lmoqda. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, xalqaro kapital bozorlariga chiqish, davlat ulushidagi yirik korxonalarni transformatsiya qilish, bank-moliya sektorini modernizatsiya qilish hamda eksport salohiyatini oshirish jarayonlari mazkur standartlariga moslashishni talab qilmoqda.

Shu tufayli global iqtisodiy munosabatlarning bugungi rivojlanish bosqichida ekologik barqarorlik, ijtimoiy mas'uliyat va korporativ boshqaruv (**ESG – Environmental, Social, and Governance**) tamoyillari kompaniyalarning uzoq muddatli barqarorligini hamda investitsiyaviy jozibadorligini belgilaydigan asosiy ko‘rsatkichlardan biriga aylandi.

ESG konsepsiyasining tarixiy ildizlari korporativ ijtimoiy mas‘uliyat (Corporate Social Responsibility, CSR) g‘oyasiga borib taqaladi va unda korporatsiyalar o‘z faoliyatida jamiyat oldida muhim ijtimoiy vazifalarni amalga oshirishi lozimligi va ekologik oqibatlari uchun ham javobgar deb topish g‘oyasini ilgari surdi[1].

Kontseptual jihatdan hal qiluvchi bosqich 1987-yilda BMTning Brundtland komissiyasi (World Commission on Environment and Development) tomonidan “barqaror rivojlanish” (sustainable development) tushunchasining ilmiy muomalaga kiritilishi bo‘ldi. “ESG” atamasi esa birinchi marta 2004-yilda BMT Bosh kotibi Kofi Annan tashabbusi bilan tayyorlangan “Who Cares Wins” hisobotida rasman qo‘llanildi. Mazkur hujjatda **environmental, social va governance** omillarini korporatsiya mulkini boshqarish, qimmatli qog‘ozlar bozori va investitsiya tahliliga integratsiya qilish bo‘yicha tavsiyalar berildi [2]. Shu tariqa, ESG dastlab investitsion qaror qabul qilish vositasi sifatida vujudga keldi va keyinchalik korporativ boshqaruvning me‘yoriy tarkibiy qismiga aylandi.

Keyingi o‘n yilliklarda ESG infratuzilmasi institutsionallashti: 2006-yilda BMT homiyligida Mas’uliyatli investitsiya tamoyillari (Principles for Responsible Investment, PRI) qabul qilindi, 2011-yilda Barqaror rivojlanish hisobotlari standartlari kengashi (SASB) tashkil etildi, Global Reporting Initiative (GRI) standartlari esa nofinansaviy hisobotning eng keng tarqalgan ramkasiga aylandi. 2021–2023-yillarda IFRS Foundation huzurida Xalqaro barqarorlik standartlari kengashi (International Sustainability Standards Board, ISSB) tuzilib ESG standartlari hisoboti global moliyaviy hisobot tizimiga uyg‘unlashtirila boshlandi [3].

Huquqiy nuqtai nazardan, ESGning rivojlanishida ikki yo‘nalish kuzatiladi: birinchidan, “G” (governance) o‘lchovi an’anaviy korporativ huquq institutlari —direktorlar kengashining mas’uliyati, fidusiar majburiyatlar, aksiyadorlar va manfaatdor tomonlar huquqlari, axborot oshkorligi bilan bevosita bog‘liq; ikkinchidan, “E” va “S” o‘lchovlari ekologik va mehnat qonunchiligidan kelib chiqib, korporativ majburiyatlar tizimini kengaytirmoqda. Aynan shu sababli ESGni sof axloqiy kategoriyadan huquqiy majburiyatlar majmuasiga aylantirish jarayoni zamonaviy korporativ huquqning eng dolzarb tendensiyalaridan biri hisoblanadi [4].

Korporativ huquq doktrinasida ESG standartlari korporativ boshqaruvning “shareholder primacy” (aksiyadorlar ustuvorligi) modelidan “stakeholder” (manfaatdor tomonlar) modeliga o‘tish jarayonini huquqiy rasmiylashtiruvchi vosita sifatida qaraladi. ESG direktorlarning fidusiar majburiyatlari doirasini kengaytiradi: an’anaviy ravishda direktorlar faqat kompaniya va uning aksiyadorlari manfaatlarini ko‘zlashga majbur bo‘lsa, ESG yondashuvi ularni ekologik va ijtimoiy xatarlarni ham hisobga olishni taqozo etadi [5].

Korporativ boshqaruv va ESG o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rgangan tizimli tahlillar boshqaruv institutlari sifati ESG natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Korporativ boshqaruv ESG va moliyaviy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi “bog‘lovchi halqa” vazifasini bajaradi; mustaqil nazorat va aniq qoidalar mavjud bo‘lgan tizimlarda kompaniyalar barqaror rivojlanishga ko‘proq sarmoya kiritadi [6]. Bu, ayniqsa, institutsional bo‘shliqlar va investorlar himoyasi nisbatan zaif bo‘lgan o‘tish iqtisodiyotlari uchun katta ahamiyat kasb etadi [7].

Milliy tadqiqotchilari ham ESGning korporativ boshqaruvdagi o‘rniga e’tibor qaratmoqda. D. Suyunovanning tadqiqotlarida korporativ boshqaruvda raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonlari tahlil qilinib, ESG tamoyillariga

rioya etish orqali kompaniyalar shaffofligi va investorlar uchun jozibadorligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi [8]. K. Sharipov va hammualliflarning ishida esa korporativ boshqaruvda korporativ ijtimoiy mas'uliyat va barqaror rivojlanish masalalari xorijiy hamda mahalliy tadqiqotchilar nuqtai nazaridan qiyosiy o'rganilgan [9]. Bu ishlar milliy doktrinada ESGning huquqiy-institutsional o'lchovini shakllantirishga zamin yaratmoqda.

Huquqiy yondashuvda ESG uchta asosiy savolga javob beradi: birinchidan, korxonalar ekologik, ijtimoiy va boshqaruv risklarini aniqlash va boshqarishga yuridik jihatdan majburmi; ikkinchidan, ushbu risklar bo'yicha ma'lumotlarni kim, qachon va qanday shaklda oshkor qiladi; uchinchidan, noto'g'ri, chalg'ituvchi yoki tekshirilmagan ESG ma'lumotlari uchun kim javobgar bo'ladi. Shu sababli O'zbekiston sharoitida ESGni korporativ boshqaruvga joriy etishning markazida aynan huquqiy tartibga solish masalasi turishi lozim.

So'nggi o'n yillikda O'zbekistonda ESG standartlarini joriy etish uchun zarur bo'lgan huquqiy asoslar bosqichma-bosqich shakllandi. Dastlabki bosqichda islohotlar korporativ boshqaruvni modernizatsiya qilish, aksiyadorlik jamiyatlarida oshkoralikni kuchaytirish, kuzatuv kengashi va ijro organi o'rtasidagi vakolatlar chegarasini aniqlashtirish hamda davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatini transformatsiya qilishga qaratildi. Bu davrda ESG atamasi mustaqil huquqiy kategoriya sifatida keng qo'llanmagan bo'lsa-da, uning "G" — governance komponenti uchun zarur bo'lgan institutsional asoslar shakllandi.

O'zbekistonda korporativ boshqaruv islohotlari, ayniqsa 2017-yildan keyingi davrda, shaffoflik, hisobdorlik va investitsiya jozibadorligini oshirishga yo'naltirildi. ESG tamoyillarini milliy huquqiy tizimga integratsiya qilish bu islohotlarning mantiqiy davomi bo'lib, mamlakatning xalqaro kapital bozorlariga chiqishi hamda **"Yashil iqtisodiyot"**ga o'tish strategiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Shu bilan birga, ESGning huquqiy tabiati, uni majburiy yoki ixtiyoriy tartibda rasmiylashtirishning chegaralari, fidusiar majburiyatlar tizimidagi o'rni hamda manfaatdor tomonlar manfaatlarini himoya qilish mexanizmlari milliy doktrinada hali yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Bu davrda korporativ-huquqiy islohotlar asosan moliyaviy shaffoflikka qaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil PQ-4611-son qarori bilan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS/MHXS)ga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi va 2021-yil 1-yanvardan aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari hamda yirik soliq to'lovchilar

IFRS asosida hisobot tayyorlashi belgilandi [10]. Mazkur islohot ESG-hisobotning keyingi joriy etilishi uchun metodologik va institutsional zamin yaratdi, zero barqarorlik hisoboti IFRS Sustainability standartlari orqali aynan moliyaviy hisobot tizimiga uyg'unlashtirilmoqda.

ESG siyosatining strategik darajadagi asosini bir qator yuqori bosqichli hujjatlar tashkil etadi. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi barqaror iqtisodiy o'sish, suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilishni asosiy ustuvor yo'nalishlar sifatida belgiladi [11]. Strategiyani amalga oshirish bo'yicha hukumat qarorlarida O'zbekistonning birinchi suveren ESG hisobotining e'lon qilinishi mamlakatning barqaror rivojlanish maqsadlariga sodiqligini namoyish etdi [12].

Korporativ-huquqiy nuqtai nazardan eng muhim o'zgarish 2024-yildan boshlandi. 2024-yil boshida davlat ishtirokidagi korxonalar uchun atrof-muhit, mehnat muhofazasi va xavfsizligi hamda ijtimoiy masalalar bo'yicha standartlarni joriy etishni majburiy qiluvchi yangi korporativ boshqaruv qoidalari ishlab chiqildi. Hal qiluvchi qadam — Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-noyabrdagi 561-son qarori bo'lib, unga muvofiq barcha davlat korxonalari har yili ESG chora-tadbirlari va korporativ ijtimoiy mas'uliyat to'g'risidagi hisobotni e'lon qilishi shart qilib belgilandi [13]. Bu talab 2019-yilda kon-metallurgiya korxonalari uchun belgilangan torroq nofinansaviy axborotni oshkor qilish majburiyatining mantiqiy davomi sifatida butun davlat sektorini qamrab oldi.

ESG standartlarini joriy etishda eng so'nggi muhim huquqiy islohotlardan biri Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 4-maydagi "Barqaror rivojlanish va atrof-muhit, ijtimoiy hamda korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 221-son qarori bilan amalga oshirildi. Mazkur qaror IFRS Sustainability Disclosure Standards (IFRS SDS — ISSB) standartlarini mahalliy korxonalarda joriy etish va ular asosida hisobot tayyorlash tartibini belgilab berdi. Qaror investorlar va boshqa manfaatdor tomonlarga ishonchli, dolzarb va qiyoslanadigan ma'lumotlarni taqdim etish uchun huquqiy asos yaratadi. ESG hisobotlarini yuritish, double materiality assessment, mustaqil tashqi tasdiqlash, ichki nazorat, ma'lumotlar sifati va kuzatuv kengashi nazorati bo'yicha maxsus qoidalar tasdiqlandi [14].

Bu evolyutsiya ESGning O‘zbekistonda “soft law” (yumshoq huquq) bosqichidan “gibrid tartibga solish” bosqichiga o‘tayotganini ko‘rsatadi. Ya’ni ESG hali barcha korxonalar uchun to‘liq majburiy institut emas, biroq davlat ulushidagi korxonalar, yirik strategik korxonalar, banklar, fond birjasi emitentlari va yashil obligatsiyalar chiqaruvchi subyektlar uchun huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan talablarga aylanmoqda.

O‘zbekiston uchun bu jihat strategik ahamiyatga ega. Mahalliy tadqiqotchilar O‘zbekiston moliya bozorining ESG tamoyillari asosida rivojlanishi, yashil obligatsiyalar, ijtimoiy obligatsiyalar va mas’uliyatli investitsiyalar kabi barqaror moliyaviy mahsulotlarni joriy etish istiqbollari tahlil qilmoqda [15], [16]. Amalda yirik davlat korxonalari —Navoiy va Olmaliq kon-metallurgiya kombinatlari, “O‘zbekneftgaz”, “Uzbekistan Airways” va “Uzbekistan Airports” —Yevroobligatsiyalar chiqarib, ESG reytinglarini olishgan.

Institutsional jihatdan, hisobotni metodologik qo‘llab-quvvatlash maqsadida Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (UzSAMA) korxonalardan o‘z faoliyati insonlar, atrof-muhit va jamiyat uchun yaratadigan xatarlarni tegishli ko‘rsatkichlar bilan oshkor qilishni talab qiluvchi tavsiyalar ishlab chiqdi. “UzAssets” huzurida ESG tashabbuslarini muvofiqlashtirish, mutaxassislarni tayyorlash va xalqaro standartlarni joriy etish uchun ESG Center of Excellence tashkil etildi, 2024–2026-yillarga mo‘ljallangan ESGni joriy etish “Yo‘l xaritasi” amalga oshirilmoqda [17].

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston 2024–2026-yillarda ixtiyoriy-rag‘batlantiruvchi modeldan majburiy oshkoralik modeliga o‘tishni boshladi: 561-son va 221-son qarorlar davlat sektori uchun majburiy hisobotni belgilab, IFRS SDS va ESRSGa tayanmoqda [18],. Ayni paytda davlat mulkchiligi siyosati modelining elementlari (UzSAMA tavsiyalari, “UzAssets” koordinatsiyasi) ham qo‘llanilmoqda. Biroq xususiy sektor uchun ESG hamon ixtiyoriy bo‘lib qolmoqda va yagona, korxonada darajasidagi majburiy ESG-huquqiy doirasi to‘liq shakllanmagan

O‘zbekistonda ESG standartlarini joriy etish istiqboli huquqiy jihatdan yetilgan bosqichga o‘tmoqda. 2016–2026-yillar oralig‘idagi islohotlar ESGni asta-sekin korporativ boshqaruv, yashil moliya, davlat ulushidagi korxonalar transformatsiyasi va axborotni oshkor qilish tizimiga kiritdi. Biroq ESGning to‘liq ishlashi uchun uni faqat hisobot yoki reputatsion vosita sifatida emas, balki korporativ-huquqiy majburiyatlar tizimi sifatida shakllantirish lozim.

Maqolaning asosiy xulosasi, O‘zbekistonda ESG standartlarini joriy etishning muvaffaqiyati xalqaro standartlarni qabul qilish bilan emas, balki ularni milliy korporativ huquq institutlari — kuzatuv kengashi vakolatlari, direktorlar majburiyati, axborotni oshkor qilish, auditorlik tasdig‘i, investorlar huquqlari va mustaqil audit uchun javobgarlik bilan bog‘lash darajasiga bog‘liq. Shu ma’noda ESG O‘zbekistonda korporativ boshqaruvni formal hisobotdan strategik huquqiy hisobdorlik modeliga o‘tkazuvchi asosiy vosita bo‘lishi mumkin.

ADABIYOTLAR

- [1][1] Bekmirzayeva Umida Abdugʻani qizi. (2026). Oʻzbekiston Respublikasi ESG standartlarini joriy qilishni huquqiy tartibga solish . tadqiqotlar, 81(3), 9-17.
- [2] UN Global Compact. Who Cares Wins: Connecting Financial Markets to a Changing World. New York: United Nations, 2004.
- [3] IFRS Foundation. IFRS S1 General Requirements for Disclosure of Sustainability-related Financial Information; IFRS S2 Climate-related Disclosures. London: ISSB, 2023.
- [4] The Corporate Governance Institute. A brief history of ESG: From pioneer to mainstream. 2025. URL: <https://www.thecorporategovernanceinstitute.com/>
- [5] The Corporate Governance Institute. A brief history of ESG: From pioneer to mainstream. 2025. URL: <https://www.thecorporategovernanceinstitute.com/>
- [6] About A., Khaireddine H. A literature review on corporate governance and ESG research: Emerging trends and future directions // International Review of Financial Analysis. 2024. Vol. 96. <https://doi.org/10.1016/j.irfa.2024.103620>
- [7] Claessens S., Yurtoglu B. B. Corporate governance in emerging markets: A survey // Emerging Markets Review. 2013. Vol. 15. P. 1–33.
- [8] Suyunova D. Aksiyadorlik jamiyatlarida raqamli korporativ boshqaruv va ESG tamoyillari // Marketing jurnali. 2024. URL: <https://marketingjournal.uz/>
- [9] Sharipov K. A., Buzrukxonov S. M., Axmedov D. K. Korxonalarda barqaror rivojlanishni tatbiq etish istiqbollari. Toshkent: OʻzR Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi, 2024.
- [10] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil PQ-4611-son qarori “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga oʻtish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”. URL: <https://lex.uz/>
- [11] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi. URL: <https://lex.uz/>
- [12] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi. URL: <https://lex.uz/>
- [13] Jumadullaeva D. Sh. Integration of ESG Principles in the System of Corporate Governance of State-Owned Enterprises in Uzbekistan: Key Barriers

and Practical Solutions // International Journal of Management and Economics Fundamental. 2025. Vol. 5, Issue 12. P. 1–8. <https://doi.org/10.37547/ijmef/Volume05Issue12-01>

[14] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 4-maydagi 221-son qarori “Barqaror rivojlanish va atrof-muhit, ijtimoiy hamda korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8171367>

[15] O‘zbekiston moliya bozorini ESG tamoyillari asosida rivojlantirish istiqbollari // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. 2025. URL: <https://sci-p.uz/>

[16] Barqaror moliyaviy mahsulotlar: rivojlanish imkoniyatlari va istiqbollari. ResearchGate, 2025.

[17] Jumadullaeva D. Sh. Integration of ESG Principles in the System of Corporate Governance of State-Owned Enterprises in Uzbekistan: Key Barriers and Practical Solutions // International Journal of Management and Economics Fundamental. 2025. Vol. 5, Issue 12. P. 1–8. <https://doi.org/10.37547/ijmef/Volume05Issue12-01>

[18] Jumadullaeva D. Sh. Integration of ESG Principles in the System of Corporate Governance of State-Owned Enterprises in Uzbekistan: Key Barriers and Practical Solutions // International Journal of Management and Economics Fundamental. 2025. Vol. 5, Issue 12. P. 1–8. <https://doi.org/10.37547/ijmef/Volume05Issue12-01>